



ALISHER NAVOIY ASARLARI BADIYYATINI ANGLASH

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy asarlarini o`rganishda nazariy ma'lumotlarning muhim o`rni borligi haqida, hech bir milliy adabiyot faqat o`z doirasidagina – boshqa xaqlardan ajralgan holda rivojlana olmasligi haqida, Shoir ijodiga bo`lgan qiziqish davr o`tishi bilan ortib bordi. Tarjimachilik rivojlanishi natijasida dunyodagi talay xalqlar Navoiyning jozibador asarlarini o`z ona tillarida o`qiy boshlaganlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, asar, doston, manba, go`zallik, nafosat, tuyg`u, kamol toptirish, o`zlikni anglash.

Alisher Navoiy xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga katta ta'sir ko`rsatib kelgan ulug` siymolardan biridir. Bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g`urur, o`zlikni anglash, go`zallik va nafosatga shaydolik tuyg`ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo`la oladi. Umumiy o`rta ta'lim, akademik listeylardagi adabiyot darslarida Navoiyning —Hayrat ul-abror|| dostoni hikoyatlarini o`rgatish vositasida o`quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, ijodiy fikrlashini o`stirish, ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish yo`llarini tadqiq etish mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Ma'lumki, Navoiy asarlarini o`rganishda nazariy ma'lumotlarning muhim o`rni bor. O`quvchilarda mazkur bilimlarni shakllantirishda adabnyotdagi nazariy ma'lumotlarni, qoidalarni o`zaro qiyoslagan holda hamda fanlararo integratsiyani yo`lga qo`yish orqali murakkabliklarni soddalashtirish, qiyin tushuncha, qoidalarni osonlashtirish yo`lini tutish maqsadga muvofiqdir. Nazariy ma'lumotlarni quruq yodlatish, ularga statistik xarakterdagi topshiriqlarni bajartirish uchungina murojaat etishdan qochib o`rganilayotgan asarlar mazmunini anglash, g`oyasini idrok etish, badiyyatini his qilish vositasi sifatida yondashmoq kerak. Alisher Navoiyning —Hayrat ul-abror|| dostoni o`ziga xos tarzda yaratilgan bo`lib, bunda maqolat va hikoyatlar vositasida shoirning olam, odam, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari ilgari surilgan. Doston badiyyatini tushunishda maqolat va hikoyatlarning o`rni kattadir. Ushbu dostonni o`qitishda maqolat va uning o`ziga xs xususiyatlari, hikoyat janrining Sharq adabiyotida, xususan, Navoiy ijodidagi o`rni haqida qisqacha ma'lumot berish lozim. Shu orqali o`quvchilarda maqolat va hikoyatlar haqida muayyan nazariy fikrlar hosil bo`ladi. Shuningdek, Navoiy dostonida ramziy-majoziy tasvirga keng murojaat qilgan. Shoir biror masala haqida fikr yuritir ekan, shu masala bilan bevosita bog`liq bo`lgan tabiat va jamiyatdan ko`plab ramziy tasvirlar keltiradi

Alisher Navoiy ijodi har zamon, har bir davr uchun saboq bo`ladigan o`lmas g`oyalar, fikr va qarashlar ummonidir. Kuni kecha Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilgini keng nishonlash to`g`risida"gi qarorda zamonamizning ma'naviy ehtiyojiga malham, muammolariga yechim bo`la oladigan bu o`lmas chashmani asrab-avaylash va targ`ib qilish borasida muhim vazifalar belgilangan.



Ma'lumki, hech bir milliy adabiyot faqat o'z doirasidagina – boshqa xaqlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Milliy adabiyotlararo ta'sir o'zaro aloqasi bir birini boyitish, bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi tilga tarjima qilish orqali ham amalga oshadi. Buyuk o'zbek shoiri mutafakkiri Alisher Navoiy ijodi esa jahon so'z san'atining alohida sahifalarini tashkil etadi. Navoiy asarlarini boshqa tilga tarjima qilish XV asrdayoq boshlangan. "Majolis un-nafois"ni 1522-1523-yillar Muhammad G'aznaviy oradan yarim asr o'tgach esa Shoh Ali bin Abdul Ali Nishopuriylar fors tojik tiliga tarjima qilganlar. Alisher Navoiynining g'azal, ruboiy, qasida, xususan, dostonlari keng tarqala borgan sari ularni o'rganishga qiziqish ham kuchayaverdi. Bu esa shoir asarlarining tili, poetik ifodalari sharhi va izohi uchun lug'atlar yaratishga sabab bo'ldi. Natijada shoir vafotidan sal o'tgach "Badoe ul-lug'at", "Lug'ati Navoiy" XVI asrda Turkiyada Abushqa, XVIII asrda "Sangloh", shuningdek, "Al-lug'at al-lison an-Navoiy" kabi lug'atlar dunyoga keldi. Bu lug'atlar darchasi Navoiy asarlarini boshqa xalq vakillariga tushuntirish ilinji bilan yaratilgan. Demak, ularni ham Navoiyni tarjima qilishga intilish sifatida baholash mumkin.

Shoir ijodiga bo'lgan qiziqish davr o'tishi bilan ortib bordi. Tarjimachilik rivojlanishi natijasida dunyodagi talay xalqlar Navoiyning jozibador asarlarini o'z ona tillarida o'qiy boshladilar. Shoir asarlarining inglizcha asarlari uzoq tarixga borib taqaladi. Navoiy asarlari ingliz tiliga turli yo'llardan kirib borgan, xususan boshqa yevropa tillariga qilingan tarjimari salmoqli o'rin tutadi. Aytaylik, bir paytlar ruscha tarjimalar bevosita vositachilik vazifasini bajargan bo'lsa, so'ngra, shoirning asarlari asl nusxadan inglizchaga tarjima qilish orqali inglizlashtirildi. Bu o'zbek turmush tarzini, sharqona urf-odatlarini o'zga yurt kitobxonlariga yetkazishda jiddiy ahmiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyli, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqifoyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

Navoiy o'z asarlarida ilmi bad'iga doir ba'zi istiloh va atamalar sharhiga ham to'xtalib, munosabat bildirib o'tadi. Jumladan, maqlubi mustaviy san'ati haqida to'xtalib, shunday yozadi:

"bu misra'ki «maqlubi mustaviy» san'atida aytibdur, dalil basdurkim: Mushi xari farrux shavam, Darki raqam qar kard" Navoiy she'riyatida quyidagi badiiy san'atlar qo'llanilgan: Irsoli masal (ar. - maqol yoki matal yuborish) - baytda maqol, matal va



hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at. Ilmi badi'ga doir deyarli barcha manbalarda ushbu san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Irsoli masal haqidagi nisbatan to'liqroq ma'lumot Atoullloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarida keltirilgan bo'lib, unda ushbu san'atning ikki usul bilan hosil bo'lishi aytiladi: "Birinchi va afzali uldurkim, masalning so'z va tartibin o'zgartirmay bergaylar... Ikkinchi yo'li uldurkim, masalda o'zgarish yuz berur" Bunda muallif irsoli masal san'atining birinchi turida she'r tarkibida keltiriladigan maqol yoki hikmatli so'zning hech o'zgarishsiz berilishini, ikkinchi turida esa matnning mazmuni saqlangan holda she'r talabi bilan maqol yoki hikmatli so'zning shakli bir oz o'zgartirilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. B.Jalilov va boshqalar. O'zbek adabiyoti. T-2006
- 2.B.Qosimov va boshqalar. O'zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik. T.-2001
- 3.N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. "O'qituvchi" T.-1965
4. Q.Yo'ldashev va boshqalar. Adabiyot.

5. A'ZAMXONOV S.X. TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

[https](https://www.interonconf.org)